

O'ZBEKISTON SSR BOSHQARUVIDA :SSSR YOKI SHAROF RASHIDOV?

Nurnazarova Sitora

*Guliston davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat
Fakulteti .Tarix yo'nalishi 21/25-guruh 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu ishda O'zbekiston SSR boshqaruvida SSSR siyosatining ta'siri va SHarof Rashidovning roli yoritilgan.Unda Rashidov davrida respublikaning ijtimoiy-iqtisidiy rivoji hamda markaz bilan munosabatlar tahlil qilingan*

Kalit so'zlar: *SHarof Rashidov, texnikum,deklaratsiya,sovet,kollektivlashtirish, sovxo'z, soxtalashtirish.*

Taniqli adib va yirik jamiyat arbobi SHarof Rashidov 1917-yilning 6-chi noyabirida Jizzax shahri atrofidagi Sovungarlik qishlog'ida tavvalud topdi.Otasi Rashid Xalilov yetti pushti dehqon bo'lib suyagi mehnatda qotgan umri qora mehnatda o'tganiga qaramay oilasida bilim olishga intilish juda kuchli edi.

SHarof Rashidov 1934-yili 7 yoshida Jizzaxdagi yetti yillik Narimonov nomidagi 10-o'rta maktabning birinchi sinfiga qabul qilindi.Bu maktabda turli yillarda atoqli shoir Xamid Olimjon,yozuv-chi Nasrullo Oxundov,akademik O'ktam Oripov, O'zbekiston xalq yozuvchisi Nazir Safarov,dramaturg va davlat arbobi Sarvar Azimov,taniqli bolalar shoiri SHukur Sadulla kabi taniqli insonlar taxsil olishgan.Aytishlaricha SHarof Rashidovning xotirasi o'tkir bo'lib fanlarni juda yengil o'zlashtirgan.1932-yili maktabni bitirgach Jizzax pedagogika texnikumiga o'qishga kirdi.

Texnikumda u nafaqat a'lochi talaba balki yaxshigina tashkilotchi sifatida xam namoyon bo'ldi.U texnikum kasaba uyushmasiga rais etib saylandi.Shu yillari SHarof Rashidovning adabiyotdagi qobilyati xam bo'y ko'rsatdi.U she'rlar yozib texnikum devoriy gazetasida e'lon qilib bordi.1941-yilda boshlangan urush ko'plar qatori SHarof Rashidovning xam xayotiy rejalarini o'zgartirib yubordi.

Shu yilning noyabrida Frunze piyodalar xarbiy bilim yurtini tezlashtirilgan dastur asosida tugatgandan so'ng Kalinin frontiga jo'natildi.1941-yil dekabrda Moskva ostonalaridagi janglarda qatnashdi.1942-yilning oxirlarida chap qo'lidan og'ir yarador bo'lib, ona diyori Jizzaxga qaytib keldi.bu yerda uni o'zi o'qiganmaktabga direktor etib tayinlashadi.

1941-1947-yillarda Samarqand viloyat partiya tashkilotining kotibi sifatida faoliyat yuritadi 1947-1949-yillarda <<Qizil O'zbekiston>> gazetasiga muxarrirlik qiladi .1949-4950-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi ,1950-1959-yillarda O'zbekiston Kompartiyasining birinchi kotibi bo'lib ishlaydi .

SHarof Rashidov to'qqiz yil O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumiga salkam 25-yil O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetiga raxbarlik qildi.Yozuvchi sifatida o'z davri muammolari quvonch va tashvishlarini yoritishga harakat qilish barobarida u o'zining oltmish olti yillik umrining yarmidan ko'pini bevosita respublikani boshqarishga sarfladi.

SHarof Rashidovda maqsadga intiluvchanlik, sobitqadamlik, mexnatsevarlik, aqllilik va albatta, shuxratparastlik kabi sifatlar bor edi. Agar shu sifatlardan bittasi bo'lmaganda ham SHarof Rashidov xayotda bunchalar kata muvaffaqiyatlarga erishmagan bo'lardi. (1; 10-11-13-betlar). Rossiya davlati XVI asrning ikkinchi yarmidayoq Ashtarxon, Qozon, Sibir va Qirim xonliklarini bosib olgandan so'ng, O'rta Osiyo va Qozog'iston yerlariga bevosita qo'shni bo'lib olgan edi. CHor Rossiyasining Markaziy Osiyo yerini bosib olishi uchun bo'lgan harbiy yurushlari XVIII asrda ya'ni Pyotir 1 davrdan boshlanib XIX asrning oxirida yakunlanadi. Salkam ikki asrga cho'zilgan bu harbiy yurushlar jahon ma'lum harakteri bilan ma'lum davrlariga ega. Har bir davr CHor Rossiyasining tashqi va ichki siyosati bilan bog'liq bo'lib xususiyatiga ega. (2; 2-bet). SHunday qilib 1924-yil oxiri va 1925-yil boshlarida Turkiston ASSR, BSSR va XSSR tugatilib ularning o'rnida O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Tojigiston ASSR tashkil etildi. 1925-yil 13-17-fevralda Buxoroda bo'lgan O'zbekiston SSR Sovetlarining 1-qurultoyida <<O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish to'g'risida Deklaratsiya>> qabul qilindi. Deklaratsiya O'zbekiston SSRning tashkil topganligini qonunan rasmiylashtirdi va uning ixtiyoriy ravishda SSSR tarkibiga kirganligini e'lon qildi. Ta'kidlash joizki respublikada kolxo'zlar tashkil qilish borasida juda kata xatolarga yo'l qo'yildi. Ayrim sovet xodimlari o'z vazifasini suiste'mol qildi. Arxiv hujjatida keltirilishicha O'rta Zarafshon okrugidagi Xatirchi rayonida 3 oyda faqat bita kolxozning raisi 20 marta almashtirilgan. Bunday ahvol boshqa rayonlardagi o'nlab kolxozlarda ham uchrab turgan. O'zbekistonda kolxozlar va sovxozlar tashkil qilinishi davrida chorva mollarini umumlashtirish jarayoning boshlanishi bilan chorva mollarining miqdori keskin kamayib ketdi. Ularning bozordagi narxi tushib ketdi. CHunki aholi xonadonida mavjud bo'lgan chorva mollarini ko'p miqdorda oilaviy ehtiyoj uchun so'ya boshladi. Ularni ommaviy sotish boshlandi. Bundan tashqari qo'shni Afg'oniston davlatiga chorva mollari ko'plab haydab o'tildi. Kolxo'zlashtirish siyosatining oqibatlari o'zini ko'p kuttirmadi. SSSR hududida sovet tuzumiga qarshi ommaviy ravishda dehqonlar qo'zg'alon boshlanib ketdi. Bu qo'zg'alonlar bir vaqtda tashkiliy uyushgan holatda ko'tarilmagan bo'lsa ham u o'zining haqli talablariga ega bo'lgan intizomli xalq noroziligi edi. 1930-yil kuzidan dehqonlarni jamoa xo'jaliklariga kirishga majburlash yana avj oldi. 1931-yil yoziga kelib barcha dehqon xo'jaliklarining 56,7% kolxo'zlarga birlashtirilgan edi. 1932-yil oxirida savxozlar soni 62 taga yetdi. Yakka xo'jaliklarga katta soliq solish bilan taziqiq o'tkazish davom etdi. Kollektivlashtirish jarayonining avj olishi davri ya'ni 1930-1933-yillarda O'zbekistonda 5550 dehqon xo'jaligi a'zolari hibsga olinib quloq qilindi va Ukraina, Sibir, Qozog'iston va boshqa joylarga zo'rlik bilan ko'chirildi. Lekin shuni ham ta'kidlash lozimki bunda nafaqat o'ziga to'q, mol-mulkka ega dehqonlarni, balki o'rta hol ayrim hollarda esa batrak xo'jaliklarga mansub kishilar ham <<quloq>> sifatida surgun qilindi. (3; 56-58-betlar). <<Paxta ishida >>tergov guruhiga kirgan tergovchilarning asosiy qismi katta bilim va tajribaga ega bo'lmagan noqonuniy holatlardan ko'z yumadigan topshiriqlarni ko'r-ko'rona tarzda bajaradigan kishilar bo'lgan. Ular soxta ayblovlar bilan qonunsizlik yo'lga o'tib tergov jarayonlarida tuhmat, ig'volar uyushtirish

faktlari soxtalashtirish, kishilarni soxta ma'lumot berishga majbur etish o'zlariga yoqmagan kishilardan o'ch olish vositasi sifatida foydalanganlar.(4;27-bet)

<<Bosqinchilik qahramonlik bo'lolmaydi>>.(CHingiz Aytmatov) yozuvchi.(5;43-bet)

Ellik yildan beri ezildik,taxqir etildik,qo'limiz bog'landi,tilimiz kesildi,oyog'imiz qopladi,yerimiz bosildi.(Parcha)(Abdurauf Fitrat adib olim.)(5;43-bet).

Dalilning toshi og'ir deyilar.SHarof Rashidov shaniga aytilgan tanqidiy fikrlarni sarxisob qilish mavrida ham keldi.

Bir kuni sobiq Markaziy Qo'mitaning dala xovlisida SHarof akam bilan Usmon Xo'jayev Buzrukxo'janing suxbatini choy qo'yib tinglab o'tiribman <<Bolam SHarofjon, o'g'limni sizga sizni esa xudoga topshirdim.Raxnamolik qilsangiz.Bir umr sizdan minnatdor bo'lib yuraman.Xudoyim martabangizni yanada ziyoda qilsin dedi u.

SHarof akam padari buzrukvorining so'zini yerda qoldirmadi.CHunki SHarof akam Usmonxo'jayev Buzrukxo'jani ezozlardi.Unga haykal o'rnatishga ham boshchilik qilgandi.Bergan vadasiga sodiq qolib uning farzandi Inomjonning yuqori martabalarga ko'tarilishiga raxnamolik qildi.(6;9-bet).SHarof Rashidov tavalludining 75 yilligiga bag'ishlangan tantanada O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov shunday degan edi.

<<Biz bugun to'liq ishonch bilan ayta olamizki ,SHarof Rashidov mustaqillik poydevoriga munosib g'isht qo'ya olgan arboblardan edi>>.(1;56-bet)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'lqin Alimardonov <<SHarof Rashidov>> SHarof Rshidov xayoti va faoliyati tarix ko'zglasida.

2. CHor Rossiyasi istilo_ziyouz_com.pdf.

3. G'ulomov I.K. O'zbekiston tarixi.

4. I.N. Djurayev,U.B.Mirzaliyev,N.A.Saidkulov,F.N.Djurayeva.O'zbekistonning eng yangi tarixi

5. CHor Rossiyasining .Turkistonni_bosib_olishi.

6. Asil Rashidov.Akam haqida.